

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA ODINA KAMOLDINOVNA

**BOLANI MAKTABGACHA TA'LIM MUHITIGA MOSLASHTIRISHNING
PSIXOLOGIK OMILLARI
(3-4 yoshli bolalar misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (PhD) философии по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on psychological
sciences**

Ibragimova Odina Kamoldinovna

Bolani maktabgacha ta’lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillari (3-4 yoshli bolalar misolida).....3

Ибрагимова Одина Камолдиновна

Психологические факторы адаптации ребенка к среде дошкольного образования (на примере детей 3-4 лет).....23

Ibragimova Odina Kamoldinovna

Psychological factors of adapting the child to the environment of preschool education example of 3-4 year old children).....43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works48

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA ODINA KAMOLDINOVNA

**BOLANI MAKTABGACHA TA'LIM MUHITIGA MOSLASHTIRISHNING
PSIXOLOGIK OMILLARI
(3-4 yoshli bolalar misolida)**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/P637 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (psi-xik@.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiboyeva Gulxumor Raxmonjonovna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Bekova Shamsiya Djabborovna psixologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD30/30.01.2020.P.26.02. raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « ___ » _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100185, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu kengach@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32;

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori, professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, psixologiya
fanlari doktori (DSc), professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, psixologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar shaxsning atrofidagi dinamik xarakterga ega bo'lgan muhitga moslashishni hamda shaxsiy rivojlanishni ta'minlovchi subyektiv xarakterga ega xususiyatlarni takomillashtirishni talab qilmoqda. Bu borada bolani maktabgacha ta'lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillarini 3-4 yoshlik davridayoq inobatga olish muhim va zarurdir: «...agar bolaning noroziliklari bir xil darajada qolsa yoki kuchaygan bo'lsa va qo'shimcha ravishda ularga regressiv reaksiyalar qo'shilsa, uyquning yomonlashishi, ishtaha, letargiya, nutqning zaiflashishi bola bilan individual ishlashni talab qiladi¹». Ta'lim tizimidagi zamonaviy tendensiyalar bolada irodaviy sifatlar, javobgarlik hissi va kreativlikni juda erta yosh davridan shakllantirishga xizmat qilmoqda. Finlyandiya, Kanada, Yaponiya ta'lim tizimida bog'cha yoshi davridanoq bolalarni hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga, kelajagi uchun mas'uliyatli bo'lishga o'rgatib borish zaruriy yondashuvlardan sanalmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida bolani maktabgacha ta'lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillarini o'rganishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashtirishda psixik salomatligini barqarorlashtirish mexanizmlari, har bir bolaning individual rivojlanishiga ta'sir etuvchi oiladagi muhit, ota-ona va bola munosabati, atrof-muhit va tengdoshlarining ta'siri, shaxslararo munosabatlarda vujudga keladigan muammolar va bolaning o'z-o'ziga bergan bahosini aniqlashga bog'liq ijtimoiy-psixologik izlanishlarga alohida e'tibor qaratish muhim ilmiy ahamiyat kasb etishi nuqtayi nazaridan muammoni ilmiy tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda bog'cha yoshidan boshlab, bolalarning ma'naviyatini yuksaltirish, bolalarning bog'cha adaptatsiyasi va bilimi darajasini oshirish, o'yin shaklida ta'lim va hayotni o'zaro uyg'unlashtirishni tarkib toptirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi: «...maktabgacha ta'lim xizmatlaridan foydalanayotgan (3-6 yoshdagi) bolalar soni nihoyatda o'sgani, 2015-yildagi 634 mingdan deyarli 2 millionga yetgani, bu esa Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilganidan buyon milliy qamrov darajasi 39 foizdan ortiq o'sganini ko'rsatishi²» masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchidan, «...jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan... avlodni tarbiyalash»³ ustuvor vazifa etib belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tizimida bolaning bog'chaga adaptatsiyasi hamda oila hayotidan bog'cha tizimiga o'tishi va bilimlarni egallashi bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Mazkur jarayonni bolalar moslashuvi – bog'cha adaptatsiyasiga binoan olib borish zaruratini ko'rsatadi va zarur omil bo'lib xizmat qiladi.

¹ <https://minikar.ru/uz/money/adaptaciya-i-podgotovka-rebenka-k-detskomu-sadu>

² <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/achieving-universal-early-childhood-education>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-5841063>

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-maydagi 837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son «2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashtirishda fikrlashni shakllantirish, bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning maqbul usullari, o‘yin motivatsiyasi, jamoa bilan faolligini oshirish va nutqiy qobiliyatini o‘stirish, boladagi emotsional buzilishlar, bolaning o‘z-o‘zini anglashi bilan bog‘liq jihatlar respublikamiz olimlaridan F.A.Akramova, Sh.Barotov, N.A.Baxriyeva, Sh.Bekova, X.Mominova, Z.Nishonova, M.Norbosheva, B.Parmonov, M.Tayjanova, A.Turg‘unov, S.Xasanova, O‘.B.Shamsiyev va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan I.Agafonov, A.Anastasi, L.I.Bojovich, S.Bure, D.B.Elkonin, Ya.L.Kolominskiy, R.Lazarus, A.N.Leontev, A.Xripkova, L.Venger, L.S.Vigotskiy, S.G.Yakobson va boshqalar tomonidan bog‘cha yoshidagi bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuv muammosi, ijtimoiylashuvining pedagogik-psixologik omillari, bolaning bog‘chaga borishga tayyorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning aqliy faoliyati va intellektual imkoniyatlari, bog‘cha ta’limiga moslasha olmaslikning asosiy sabablari va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘rganish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan E.Erikson, J.Piaje, J.B.Rotter va boshqalar bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslasha olmasligi kelib chiqishining oldini olish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsion tadqiqot Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Oliy ta'lim muassasalari negizida maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT)ning zamonaviy didaktik metodika ta'minotini yaratish» mavzusidagi FZ-202001064-raqamli amaliy doirada bajarilgan (2020–2022-yy.).

Tadqiqotning maqsadi bolani maktabgacha ta'lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillarini baholash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha yoshidagi bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvda birlamchi faktorlar sifatida «ota-onaga bo'lgan ijobiy munosabat», «aka-opaning bolaga pozitiv bahosi» hamda «bobo-buvining ma'naviy-kollegial qo'llab-quvvatlashi»ni aniqlash;

bolaning «adaptatsiya inqirozi» davrini «stimulli travmalarsiz» kechishini ta'minlashda ota-onaning juftlik sifatidagi roli statik ko'rinishdaligini isbotlash;

MTTga ijtimoiy moslashuv davrida jins, yosh jihatlariga ko'ra muayyan differensial tafovutlarga bog'liq emasligini aniqlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvning pedagogik atributlari sifatida «harakatlar namoyishi – demonstratsiyasi», «pedagogik instruktaj», «psixologik drammatizatsiya»sini dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida maktabgacha yoshdagi bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi jarayoni olingan bo'lib, Andijon viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilardan jami 235 nafar 3-4 yoshli bolalar, 115 nafar ota-onalar va 85 nafar maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachi-pedagoglari respondentlar sifatida tadqiqotga jalb qilindi.

Tadqiqot predmetini maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvdagi birlamchi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik omillar, xususiyatlar hamda pedagogik-psixologik imkoniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda suhbat, kuzatish metodlari, shuningdek, Rene Jilening «Bolaning shaxslararo munosabatlar sohasi diagnostikasi» metodikasi, L.Korman modifikatsiyasi asosidagi «Oila rasmi» proyektiv metodikasi, Dj.Bakning «Uy, daraxt, odam» proyektiv testi, A.Ostrouxovanning «Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashish darajasini aniqlash» psixologik testi, A.Ya.Varga va V.V.Stolinlarning «Ota-onalar munosabatlari diagnostikasi» metodikalaridan foydalanildi, olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan chastotali tahlil, Kolmogorov-Smirnov normal taqsimlanish qonuniyati, ikki mustaqil tanlanma to'plamlar uchun Mann-Uitni – u mezoni, Spirmanning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti hamda bog'liq tanlanmalar uchun Wilkokson Z mezoni orqali tekshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvida birlamchi faktorlar sifatida «ota-onaga bo'lgan ijobiy munosabat», «aka-opaning bolaga pozitiv bahosi» hamda «bobo-buvining ma'naviy-kollegial qo'llab-quvvatlashi» aniqlangani holda, bola shaxsining emotsional, konativ, kognitiv, irodaviy-motivatsion sohalariga «kompleks» ta'sir – ikkilamchi-pedagogik aspektlar bo'lishi dalillangan;

bolaning «adaptatsiya inqirozi» davrini «stimulli travmalarsiz» kechishini ta'minlashda ota-onaning juftlik sifatidagi roli statik ko'rinishdaligi isbotlanib, «o'yinchoq terapiya», «simbiotik psixopatronaj», «diatik stimulizatsiya» orqali «psixobiotik leytmotiv» bo'lishi dalillangan;

MTTga ijtimoiy moslashuv kichik maktabgacha yosh davrida jins, yosh jihatlariga ko'ra muayyan differensial tafovutlarga ega emasligi aniqlanib, «qulay oilaviy sharoit»ga additivlik bolada adaptatsion jarayonlarning sekinlanishida yuzaga keltirishi, oiladagi ichki konflikt bolada «g'am-anduh»dan qutulish yo'li sifatida faqat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lishi mumkinligi haqida prizmatik-stereotipik tasavvur hosil qilishi isbotlangan;

maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvning pedagogik atributlari sifatida «harakatlar demonstratsiyasi», «pedagogik instruktaj», «psixologik dramatisatsiya» dalillanib, moslashuv davrining «o'rta», «yengil» hamda «og'ir» turlari differensiyasiga ko'ra, tarbiyalanuvchilarga separativ ko'rinish orqali individual hamda guruhiy tartibdagi psixokorreksion mashg'ulotlar, pedagog va ota-onalarning kombinativ usullari bola ijtimoiylashuvdagi asosiy mexanizmlar «richagi» ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun «Bolalarning ishtimoiy moslashuvi» fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan; (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 29.05.2023 yildagi 232-sonli buyrug'i)

«Maktabgacha yoshdagi bolalarni bog'chaga moshlashish darajasini o'rganish» dasturi tashkiliy-metodik qo'llab-quvvatlashga asoslangan dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Intellektual mulk agentligi guvohnomasi: № DGU 29165);

maktabgacha yoshdagi bolalarni «Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashtirish»ga oid korreksion dastur ishlab chiqilgan.

bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashishida yosh, individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi asoslangan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentivligi, tanlangan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan emperik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, izlanishlar aniq va reja bosqichlarida bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi, ma'lumotlarni qayta ishlash vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining ilmiy-nazariy ahamiyatining mazmun-mohiyati ochib berilgan, qo'lga kiritilgan natijalardan oliy ta'lim tashkilotlarida «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya», «Rivojlanish psixologiyasi», «Psixologik xizmat», «Psixologik maslahat va psixokorreksiya», «Ijtimoiy psixologik trening» fanlarini ilmiy manba bilan boyitishda va amaliyotchi psixologlar malakasini oshirishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida psixologik xizmatni tashkil etishda, bog'chaga qabul qilish jarayonida bolalarda o'quv faoliyatini o'zlashtirish uchun yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilishda, kommunikativ qobiliyatlar, aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirish samaradorligini oshirishda, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalardan maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi, pedagog tarbiyachilar ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanishlari mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Bolani maktabgacha ta'lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillarini tadqiq etish bo'yicha erishilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvida birlamchi faktorlar sifatida «ota-onaga bo'lgan ijobiy munosabat», «aka-opaning bolaga pozitiv bahosi» hamda «bobo-buvining ma'naviy-kollegial qo'llab-quvvatlashi» aniqlangani holda, bola shaxsining emotsional, konativ, kognitiv, irodaviy-motivatsion sohalariga «kompleks» ta'sir – ikkilamchi-pedagogik aspektlar bo'lishi dalillashga oid ilmiy ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-167-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-167-a son ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha yoshdagi bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvida birlamchi faktorlar sifatida «ota-onaga bo'lgan ijobiy munosabat», «aka-opaning bolaga pozitiv bahosi» hamda «bobo-buvining ma'naviy-kollegial qo'llab-quvvatlashi»ni aniqlash imkoniyati yaratilgan;

bolaning «adaptatsiya inqirozi» davrining «stimulli travmalarsiz» kechishini ta'minlashda ota-onaning juftlik sifatidagi roli statik ko'rinishdaligi isbotlanib, «o'yinchoq terapiya», «simbiotik psixopatronaj», «diadik stimulizatsiya» orqali «psixobiotik leytmotiv» bo'lishi dalillangan xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-167-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-167-a son ma'lumotnomasi). Natijada bolaning «adaptatsiya inqirozi» davrini «stimulli travmalarsiz» kechishini ta'minlashda ota-onaning juftlik sifatidagi roli statik ko'rinishdaligini ilmiy tadqiq etish imkoniyati yaratilgan;

MTTga ijtimoiy moslashuv maktabgacha yosh davrida jins, yosh jihatlariga ko'ra muayyan differensial tafovutlarga ega emasligi aniqlanib, «qulay oilaviy

sharoit»ga additivlik bolada adaptatsion jarayonlarning sekinlanishida yuzaga kelishi, oiladagi ichki konflikt bolada «g'am-anduh»dan qutulish yo'li sifatida faqat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lishi mumkinligi haqida prizmatik-stereotipik tasavvur hosil qilishi isbotlangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-167-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-167-a son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuv davrida jins, yosh jihatlariga ko'ra muayyan differensial tafovutlarga ega emasligi aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvning pedagogik atributlari sifatida «harakatlar demonstratsiyasi», «pedagogik instruktaj», «psixologik drammatizatsiya» dalillanib, moslashuv davrining «o'rta», «yengil» hamda «og'ir» turlari differentsiatsiyasiga ko'ra, tarbiyalanuvchilarga separativ ko'rinish orqali individual hamda guruhiy tartibdagi psixokorreksion mashg'ulotlar, pedagog va ota-onalarning kombinativ usullari bola ijtimoiylashuvidagi asosiy mexanizmlar «richagi» ekanligi aniqlangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 9-iyuldagi PM-167-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiya va differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 13-iyuldagi PM-167-a son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvning pedagogik atributlari sifatida «harakatlar demonstratsiyasi», «pedagogik instruktaj», «psixologik drammatizatsiya»si ustuvor harakterga ega ekanligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 1 ta o'quv qo'llanma, 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, 3 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda, 2 ta xalqaro anjumanlarda nashr etilgan.

Tadqiqot ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot obyekti ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning birinchi bobi «**Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiylashuvining nazariy va metodik asoslari**» deb nomlangan bo'lib, unda jahon psixologiyasi fanida bolalarning ijtimoiy moslashuvi muammosining pedagogik-psixologik jihatdan tadqiq etilishi, bog'cha yoshidagi bolalar rivojlanishining psixologik xususiyatlari hamda o'yin va o'quv faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida turli psixologik maktab namoyandalarning qarashlari tahlil qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga moslashtirishni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash muammosining dolzarbligi nafaqat intellektual, balki psixologik va ijtimoiy-madaniy salohiyatga ega bo'lgan ijtimoiy rivojlangan shaxsni tarbiyalashning shoshilinch zarurati bilan belgilanadi.

Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uning hayotining muhim davrlaridan biri bo'lib, barcha tana tizimlari tomonidan sezilarli stress bilan birga keladi. Yosh bolalarning ta'lim maydoniga moslashish muammosini o'rganish N.M.Aksarina, O.V.Belova, N.V.Kiryuxina, S.V.Kryukova, S.V.Koroleva, E.I.Morozova, Yu.V.Pistun, E.O.Smirnova, R.V.Tonkova-Yampolskaya va boshqalarning ishlarida yoritilgan psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bolalarning ular uchun yangi hayot sharoitlariga ko'nikish tezligi va sifatiga ta'sir qiluvchi ikkita asosiy omilni aniqlashga imkon beradi: birinchisi, bolaning oilasi va ota-onalarning xatti-harakatlari uning bolalar bog'chasiga moslashishiga yordam berish kafolati sifatida; ikkinchisi – maktabgacha ta'lim tashkiloti va pedagogik xodimlarning maxsus ishi, bu bolalar guruhiga birinchi marta kiradigan bolalarning muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlaydi.

Mualliflar moslashuv guruhlarini yaratishda, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari va psixologlarining oila bilan ishini rejalashtirishni taklif qiladilar, oiladagi bolalarni bolalar bog'chasiga tayyorlashga qo'yiladigan talablarni, moslashish davridagi pedagogik yordam usullari sifatida tavsiflaydi (F.A.Akramova, E.V.Barishnikova, O.A.Belobrikina, M.O.Dergousova, A.S.Gromova, E.V.Jerdeva, N.V.Kiryuxina, Markova.B, Yu.B.Selezneva, N.D.Vatutina, T.Yu.Zagvozdina, I.Yu.Zaporojes). Ushbu muammoning nazariy-uslubiy rivojlanishining yuqori darajasi bolalar va ularning oilalariga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishni tashkil etishning uslubiy jihatlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, bolalarni moslashtirishning psixologik omillari to'g'risidagi bilimlarga asoslanib, tashkilotda yetarlicha sharoit yaratishni tashkil etishga to'sqinlik qilmoqda. Moslashuvchanlik tushunchasi keng ta'rifida tirik tizim va tashqi sharoitlar o'rtasidagi muvofiqlikni bildiradi. Inson tanasining moslashuvi odatda ikki o'lchovda ko'rib chiqiladi: biologik (fiziologik) va psixologik (ijtimoiy). Moslashuv subyekti sifatida inson individi nafaqat biologik («organizm – muhit» tizimida moslashish), balki ijtimoiy («shaxs - ijtimoiy muhit» tizimida moslashish) darajalariga ega, ya'ni inson ijtimoiy moslashishga qodir. Ijtimoiy daraja shaxsга xos bo'lgan (ijtimoiy-psixologik moslashuv) va undan ajratilgan (ijtimoiy tashkilotlar va ijtimoiy institutlar)ga bo'linadi. G'ayrioddiy ijtimoiy ta'sirlar ostida odam stressni - psixologik stressni boshdan kechiradi.


E.I.Morozovaning ta'kidlashicha, bolaning maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitlariga moslashishining samarali omillaridan biri bu qisqa muddatli ixtisoslashtirilgan guruhga tashrif buyurishdir. Moslashuv guruhi bolaning yangi muhitga, yangi shaxslarga, yangi talablarga u uchun eng yumshoq rejimda ko'nikishiga imkon beradi. Guruhda onaning yoki boshqa yaqin kattalarning mavjudligi bolaga «bog'cha qo'rquvini» yengishga yordam beradi va ota-onadan «silliq» ajralishga imkoniyat yaratadi. Bolaning qisqa muddatli guruhga tashrifi unga jamiyatga qulay, og'riqsiz «kirish»ni ta'minlaydi. Ma'lum ma'noda, maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uchun «tayyorlash» yetarli emas. Muallif, shuningdek, bola moslashuvining uch bosqichli modeli yaratilishi kerakligini, ularning har birida o'z vazifalari hal qilinishi kerakligini ham alohida ta'kidlab o'tgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Bolalarni maktabgacha ta'lim muhitiga ijtimoiy moslashtirishning empirik o'rganish natijalari**» deb nomlanib, bu borada olimlarning turli qarashlarini tahlil etish orqali tadqiqotning metodologik asosi ochib berilgan. Shuningdek, mazkur bobda maktabgacha yoshdagi bolalarni bog'chaga moslashish darajasini o'rganish bo'yicha ishlarni tashkil qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabatlar diagnostikasi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvning yosh tafovutiga bog'liqlik jihatlarining tahlili o'z aksini topgan. Tadqiqot maqsadi ko'proq kichik maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarnig maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda bolalarni kamroq darajada inqirozsiz moslashuvini ta'minlashda pedagog-tarbiyachilar bilan birgalikda kompleks-chora tadbirlar mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Kichik maktabgacha yoshidagi bolalarni MTTga ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, asosan, psixologik, pedagogik, fiziologik hamda ijtimoiy shartlar asosida kechadi. Ushbu shartlarning qiyosiy tahliliga ko'ra bola ijtimoiylashuvida birlamchi agent vazifasini oilaviy sharoit o'taydi. Shu nuqtayi nazardan, bolaning tashqi muhitda faol ijtimoiy munosabatlarga kirishishida MTTning o'rni katta. Yuqorida berilgan bolaning faol ijtimoiylashuv mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan model olingan empirik natijalar tahliliga muvofiq ishlab chiqilgan. Xususan, bolani MTTga dastlabki birlamchi ijtimoiylashuvini aniqlashdan oldin quyidagi 3 ta tekshiruv jihatiga e'tibor qaratish lozimligi ma'lum bo'ladi.

Psixodiagnostik bosqichda bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ilk qadam qo'ygan kunidanoq undagi birlamchi o'zgarishlar, psixologik holatlar ota-ona hamda tarbiyachi-pedagog e'tibor markazida bo'ladi. Masalan, uning o'zini qanday his qilishi, muloqot qilish istagi, ovqat tartibi va yig'lash sikli. Ushbu bosqichda bolaning xulq-atvoridagi o'zgarish belgilariga qarab ijtimoiylashuv sikli klassifikatsiyalashtiriladi. Ijtimoiylashish darajasini baholash amalga oshiriladi.

Psixoprofilaktik bosqichda ijtimoiylashuv jarayoni normal hamda deviant shaklda kechayotgan bolalardagi o'xshash va farqli jihatlar ajratiladi. Belgilarga muvofiq ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir etayotgan omillar – qulay oilaviy sharoit, simbiotik munosabatlar, bolaning fiziologik holati hamda tengdoshlar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar kabilarni bartaraf etish uchun zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.



1-rasm. «Kichik maktabgacha yosh davridagi bolalarni MTTga ijtimoiy moslashuvining psixologik mexanizmlari» modeli

Psixokorreksion bosqichda esa, moslashish darajasi bo'yicha guruhlariga bo'lingan (qiyin, o'rta va yengil) tarbiyalanuvchilarning har biri bilan individual hamda guruh miqyosida ishlar olib boriladi. Bunda pedagog hamda ota-onalar kombinativ usullar asnosida bolaning ijtimoiylashuvidagi asosiy mexanizmlar

«richagi» sifatida maydonga chiqadi. Mazkur uchta bosqichning qat'iy ketma-ketligi barcha bolalar uchun birdek ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiylashuvning bola shaxsidagi darajalariga qarab bosqichlarning birinchisidan ikkinchisiga o'tishi 10-15 kunni qamrab oladi. Faol ijtimoiylashuv siklida esa 40-45 kun atrofida tizimli ishlar yo'lga qo'yiladi.

Bola shaxsining emotsional, konativ, kognitiv, irodaviy-motivatsion sohalariga «kompleks» ta'sir orqali amalga oshiriladigan mazkur bosqichdagi ishlarda ota-onalar uchun ham, tarbiyachi-pedagoglar uchun ham alohida masalalar belgilangan. Tarbiyachi va ota-ona tomonidan bolaga yondashishda ijtimoiy-psixologik – bolaning shaxsiy xususiyatlari, individualligi, kattalar bilan muloqotda hamda tengdoshlar bilan muloqotda o'zini tutishi, ijtimoiy makondagi o'rni; pedagogik-kompetentli – qo'pol munosabatda bo'lmasdan, «bolalarcha» aloqalar orqali bola bilan munosabat o'rnatish texnologiyasini qo'llash; individual va guruhiy yo'naltirilgan – bolani guruh ichida hamda tashqarisida kuzatgan holda undagi guruh va o'z shaxsiy «men»ini namoyon etishidagi farqlarni umumlashtirish, o'xshash xulq-atvor patternlarini sistemalashtirish kabilarga alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek, ushbu model tasnifiga binoan, bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvini ta'minlovchi mexanizmlar tarkibiga diadik-kollegiallik prinsipi ham alohida o'rin tutadi. Bola ravnaqi yo'lida ota-ona hamda tarbiyachi pedagoglarning hamkorligi yangi bosqichda maxsus messengerlar orqali axborot uzatish shaklida ham davom etadi. Bunda bola uyga qaytganidan so'ng pedagog bilan ota-ona bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi kunlik rejimi haqida hisobot beradi. Shu orqali bolada ba'zi o'zgaruvchan belgilar korreksiya qilinadi.

Ushbu qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun milliy madaniy muhitimizga moslashtirilgan, aprobatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan hamda bir necha tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida qo'llanilib, o'z samarasini bergan psixodiagnostik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida berilgan maqsad va fikrlarni amalga oshirish va real hayotga tatbiq etish uchun biz tomonimizdan Stolin-Varganing «Ota-onalar va pedagoglarning bolalarga bo'lgan munosabatlari psixodiagnostikasi» metodikasining ota-onalar hamda pedagog-tarbiyachilar uchun mo'ljallangan varianti, bolalar uchun «Uy, odam, daraxt» proyektiv testi, «Oila rasmi» proyektiv metodikasi, «Moslashuvchanlik darajasini aniqlash» so'rovnomasi hamda Rene Jilening «Bolaning shaxslararo munosabatlar sohasi diagnostikasi» metodikalaridan foydalanildi. Dastlab empirik tadqiqotimizni boshlashda obyekt sifatida Andijon viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tahsil oluvchi jami 235 nafar 3-4 yoshli bolalar hamda 115 nafar ota-onalar va 85 nafar tarbiyachi-pedagoglar respondent-sinaluvchi sifatida ishtirok etdi. Shunday qilib tadqiqotimizga jami 435 nafar sinaluvchilar jalb etilgan.

Otaga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha ishonch ko'rinishidagi ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($u=5116,000$, $p\leq 0,01$). Bundan qizlarda kichik maktabgacha yosh davridan boshlab ota siymosiga ehtirom, otaning o'rnini hayotida ustun qo'yish motivi yetakchilik qilib, qiz bolalar uchun ota – himoyachi, qo'riqchi, yaqin suyanch vazifasini bajarishi haqida tasavvurlarning shakllanib bo'lganidan dalolat bersa, maktabgacha ta'lim tashkilotiga ilk bor qadam qo'yayotgan bolalarni, ayniqsa,

qizlarni onasiga qaraganda otasi bilan birga borishi ularning o'ziga bo'lgan ishonch darajasining ortib borishiga ham zamin yaratishi mumkinligi kabi fikrlar yuritilishiga sabab bo'ladi. Ota-onaga, oilaviy juftga bo'lgan munosabat ko'rsatkichida ($u=5354,500$, $p\leq 0,01$) qizlarda o'g'il bolalarga qaraganda ota-onani oilaviy bus-butun birlik sifatida idrok etish yuqoriroq bo'lishi kuzatildi. Demak, faqat otaning emas, balki onaning ham kundalik maktabgacha ta'lim tashkilotiga borish, kelish, vazifalarni birgalikda bajarish jihatidan roli yuqoriligini alohida qayd etib, otaning bu «kichkina» yumushlarda ishtiroki ta'minlanishini o'g'il bolalarga nisbatan qizlarda ota-onalikni yaxlit komponent sifatida qarashlariga olib keladi.

1-jadval

Rene Jilening «Bolaning shaxslararo munosabatlar sohasi diagnostikasi» metodikasi natijalari, Mann-Uitni mezoni asosida, $n=235$

Shkalalar	Jins	O'rt. Rang	u	p
Otaga bo'lgan munosabat	o'g'il bolalar	102,73	5116	0,001**
	qiz bolalar	133,14		
Ota-onaga, oilaviy juftga bo'lgan munosabat	o'g'il bolalar	104,76	5354,5	0,003**
	qiz bolalar	131,12		
Aka-uka, opa-singilga bo'lgan munosabat	o'g'il bolalar	101,18	4935	0,000**
	qiz bolalar	134,68		
Muloqotchanlik	o'g'il bolalar	106,31	5535	0,006**
	qiz bolalar	129,59		

Izoh: ** - $p\leq 0,01$

Aka-uka, opa-singilga bo'lgan munosabat shkalasi jihatidan ham sinaluvchilarning ko'rsatkichlari o'rtasida ishonchli tafovutlar aniqlanib ($u=4935,000$, $p\leq 0,01$), aka-uka, opa-singilga bo'lgan munosabatning qiz bolalarda ustunlik qayd etishini ko'proq komfort jihatidan sibling munosabatlarda o'zining ideal «men» qiyofasini namoyon etishida ham yaqqol ifoda etilganining natijasi deb qarashga imkon beradi. Keyingi do'stga bo'lgan munosabat ($u=6178,500$, $p\geq 0,05$), tarbiyachiga bo'lgan munosabat ($u=6071,500$, $p\geq 0,05$), qiziquvchanlik darajasi ($u=6413,500$, $p\geq 0,05$), hukmronlikka intilish ($u=6525,500$, $p\geq 0,05$) kabi ko'rsatkichlarda ishonch darajasidagi ahamiyatli tafovutlar aniqlanmagan, biroq ozgina ustunlik ko'rsatkichi qizlarning natijalarida qayd etildi. Bundan ma'lim bo'ladiki, qizlarda o'g'il bolalarga qaraganda qiziquvchanlik darajasining yuqori bo'lishi ko'proq ularda tarbiyachiga «ikkinchi onasidek» munosabat o'rnatishini, guruhda hukmronlikka intilish darajasining ortishiga ham turtki bo'lishiga olib kelishi bilan ham tavsiflanadi.

Oila rasmi metodikasining jins bo'yicha tahlili amalga oshirilganda, shkalalarning barcha ko'rsatkichlarida ishonch darajasidagi farqlar aniqlanmaganini kuzatishimiz mumkin. Qulay oilaviy sharoit shkalasi bo'yicha ishonchli ahamiyatli tafovutlar kuzatildi ($u=5351,000$, $p\leq 0,01$). Dalillanadiki, qizlarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda qulay

oilaviy sharoit muhiti muhim rol o‘ynab, oilaning ijtimoiy barqarorlashuv darajasi, bog‘chaga borishga bo‘lgan oiladagi umumiy motiv kabilar kichik maktabgacha yosh davrida bolaning maktabgacha ta‘lim tashkilotiga ijtimoiy-refleksiv moslashish shartlarini yuzaga chiqarishda xizmat qiladi. O‘g‘il bolalarda esa, aksincha, oilaviy sharoitning qulay yoki qulay emasligi bolaning ijtimoiy moslashuvini muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kechishiga unchalik darajada ta‘sir ko‘rsatmasligi olingan natijalar tahlilidan ham ma‘lum bo‘ladi. Fikrimizcha, bolaning ijtimoiylashuvida birinchi agentlar sifatida oila muhiti muhim omil bo‘lishi barobarida qulay, barqaror oilaviy sharoit bolaning maktabgacha ta‘lim tashkilotiga borish motivining ortishiga, uning ijtimoiy-refleksiv moslashish ko‘nikmasining yuzaga kelishida ham «yetakchi faktor» bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi oydinlashadi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

L.Kormanning «Oila rasmi» metodikasining jins bo‘yicha tahlili, Mann-Uitni mezoni asosida, n=235

Shkalalar	Jins	O‘rt. Rang	u	p
Qulay oilaviy sharoit	o‘g‘il bolalar	104,74	5351	0,003**
	qiz bolalar	131,15		
Oilaviy vaziyatda nomukammallik tuyg‘usi	o‘g‘il bolalar	105,91	5488,5	0,006**
	qiz bolalar	129,99		

Izoh: ** - $p \leq 0,01$

Kichik maktabgacha yosh davridagi qizaloqlarda «nomukammallikdan mukammallikka intilish» maktabgacha ta‘lim tashkilotiga borish, bog‘cha muhitiga ijtimoiy moslashish, oiladagi vaziyatlardan «xalos» bo‘lish uchun motiv rolini bajarishi ham mumkinligi natijalarda aks etmoqda. Oilaviy vaziyatda nomukammallik tuyg‘usi ko‘rsatkichida ($u=5488,000$, $p \leq 0,01$) ham ishonchli natijalar mavjudligi kuzatilib, xalqimizning «sen tinch –uying tinch» mazmunidagi xalq donishmandligi namunalariga asoslanib, qizlarning kichik maktabgacha yosh davridan boshlab uy-ro‘zg‘or yumushlariga nisbatan ijobiy immunitet hosil qilinishi ortida ulardagi oilaviy vaziyatlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usi kuchli ko‘rinishda shakllanib borib, bu o‘z navbatida ularda oiladagi nomukammallik tuyg‘usini mukammallik kompleksiga aylantirishda richag vazifasini bajaradi.

Barcha moslashuv darajalarida (yengil ($u=6841,500$, $p \geq 0,05$), o‘rta ($u=6328,500$, $p \geq 0,05$) hamda qiyin ($u=6681,500$, $p \geq 0,05$) moslashuv) ishonchli farqlar aniqlanmadi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, moslashishning sikli qiz va o‘g‘il bolalarda unchalik katta tafovutli farqlar qilmas ekan. Bunday ko‘rinish tus olishiga sabab qilib esa, taxminimizcha, bolalarning bir xil ontogenez bosqichidagi davrda ekanliklari hamda maktabgacha ta‘lim tashkiloti tog‘risidagi ijtimoiy ustanovka va tasavvurlarining o‘xshashlik kasb etishlari natijasi sifatida ta‘kidlab o‘tishimizga turtki beradi.

«Bolalarni maktabgacha ta‘lim muhitiga ijtimoiy moslashtirishning psixokorreksion dasturi samaradorligi» deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi

bobida tarbiyachi-pedagog va ota-ona – bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvining muvaffaqiyat omili sifatida, bolaning maktabgacha ta’lim muhitiga ijtimoiylashuvini ta’minlashga yo’naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili hamda bolani maktabgacha ta’lim tashkilotiga moslashtirish bo’yicha ota-ona va tarbiyachilar uchun uslubiy tavsiyalar o’rin olgan. Ota-onalar munosabati bolaga nisbatan har xil his-tuyg’ularning tizimi sifatida, u bilan muomalada xulq-atvorning o’zgarasligi (stereotipligi) bola shaxsi, uning xatti-harakatlari, xarakteri, idrok qilish xususiyatlarini tushunish sifatida qaraladi. Shuningdek, kichik maktabgacha yosh davridagi emotsional beqarorlik, qo’zg’aluvchanlik xususiyatlariga barham berishga erishish hamda ularda o’z xatti-harakatlarini boshqara olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish situatsion vaziyatlarga bog’liq bo’lgan bolalarning dezadaptatsiyasining oldini olishda muhim hisoblanadi.

3-jadval

Varga-Stolinning «Ota-ona, tarbiyachi-pedagog va bola munosabatlari diagnostikasi» metodikasi natijalari, tarbiyachi-pedagog va ota-onalar fikrlari misolida, Mann-Uitni mezoni asosida

Shkalalar	O’rtacha rang ko’rsatkichlari		Statistik ko’rsatkich	
	Tarbiyachi-pedagoglar (n=85)	Ota-onalar (n=115)	u	p
Qabul qilingan - rad etilgan	110,82	92,87	4010,5	0,030*
Kooperatsiya	94,84	104,68	4406,5	0,230
Simbioz	110,01	93,47	4079,5	0,043*
Giperijtimoiylashuv	96,28	103,62	4528,5	0,370
Kichik omadsizlik	89,18	108,87	3925,5	0,017*

Izoh: * - $p \leq 0,05$

